

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

S.MAHMUDOVA

“Turg‘unoy Egamberdiyeva – Farg‘onalik ayollarning gultojidir”	6
---	---

PEDAGOGIKA

X.Kadirov, B.Xamdamov

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishda media kompetentlikning dolzarbligi va ahamiyati	8
---	---

L.Yo’Idosheva

Muzeylarda turli xil mashg‘ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	13
---	----

M.Alimjanova

Ta’limning jarayonida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirish usullari, metodi va vositalari	17
--	----

B.Xaydarov

Odam tana tuzilishini tahlil qilish.....	23
--	----

G.Absalamova

Mishel monten “tajribalar” asarida oilada farzand tarbiysi tushunchasi.....	28
---	----

F.Mirzayeva

Oiladagi shaxslararo munosabatlar – jamiyatning tinchlik garovi.....	32
--	----

IQTISODIYOT

T.Xaydarov, B.Karimov

Tadbirkorlik mahalladan boshlanadi	36
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

N.Hakimov, D.Amridinova

Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari.....	40
---	----

I.Raximov

O‘zbek mahallasi: tarix va hozirgi zamon ko‘p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari	48
---	----

R.Isamutdinov

“Xavfsiz mahalla” tushunchasi va uning mohiyati.....	54
--	----

S.Xoliqov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining milliy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha vazifalarining o‘ziga xos jihatlari	57
---	----

ТАРИХ

M.Xurramov

1991 - 2016 yillarda O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlarda Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari	61
---	----

R.Arslonzoda

Istiqlol yillarda O‘zbekistonda arxiv ishi huquqiy asoslarining yaratilishi	69
---	----

I.G‘ulomov, Z.Kasimova

O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatga olish	76
---	----

G.Haydarov

Farg‘ona vodiysi aholisi ijtimoiy turmush sharoitlarini yanada yuksaltirishda halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari tarixi	83
--	----

G.Dadamirzayeva

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Farg‘ona viloyati artellarining faoliyati	88
---	----

A.Aduvali

Shokir Sulaymon yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan Turkiston yoshlarining faol vakili.....	93
--	----

N.Komilov

Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o‘rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	98
--	----

M.Darmonova

“Katta qirg‘in”ning yosh qurboni.....	103
---------------------------------------	-----

L.Sokolova

Farg‘ona vodiysi: ustozga bag‘ishlanish marosimining shakllari	107
--	-----

O.Zaripov

“Tarjimon” gazetasida Turkistonda yer-suv masalalarining yoritilishi	113
--	-----

**IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA FARG'ONA VILOYATI
ARTELLARINING FAOLIYATI**

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АРТЕЛЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ
МИРОВОЙ ВОЙНЫ**

**ACTIVITIES OF ARTELS OF FERGANA REGION IN THE YEARS AFTER THE SECOND
WORLD WAR**

Dadamirzayeva Gulchexra Abdunabiyevna¹

¹Dadamirzayeva Gulchexra Abdunabiyevna

– *Namangan davlat universiteti Tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotasiya

Mustaqillik yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlarni hayotga tatbiq etishda turli xil mulk shakllarini yaratish va ularni samarali qo'llash muhim ahamiyatga ega bo'lib, kooperativ korxonalar aholini keng iste'mol mollari bilan ta'minlashda va ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishda dolzarb bo'lib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, xususan, tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi birlashmalarida mustaqil va o'zaro bog'liq korxonalar, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda tomorda yer egalarining kooperation birlashishi institutini yaratish, mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarining kooperatsiyasini rivojlantrish kabi masalalarni hal etishda tarixiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchchi jahon urushidan keyingi yillarda ishlab chiqarish kooperativlari faoliyati va ularning hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mi va roli masalalarini yangi metodologik nuqtai nazardan tadqiq etilishi qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Sovet hukumati tomonidan artellarga halq iste'mol mollari ishlab chiqarish bilan bir qatorda kooperativ savdosini kengaytirish haqida topshiriq berildi. Mazkur maqolada Farg'ona viloyatida Ikkinchchi jahon urushidan keyingi yillarda faoliyat olib borgan ishlab chiqarish kooperativlarining hududning iqtisodiy rivojlanishidagi o'mi, keng iste'mol mollarini ishlab chiqarishdagi roli va ularning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilib, ma'lumotlar tahlil qilingan.

Аннотация

В годы независимости важное значение имело создание различных форм собственности и их эффективное применение в процессе внедрения в жизнь реформ в социально-экономической сфере, в обеспечении населения товарами широкого потребления, стабилизации и развитии социальных отношений, в связи с чем все большую актуальность приобретают кооперативные предприятия. В осуществляемых в данном направлении изменениях, в частности, решении таких вопросов, как создание института кооперационного объединения независимых и взаимосвязанных предприятий, фермерских, дехканских хозяйств и владельцев приусадебных участков в сельскохозяйственные объединения, а также развитии кооперацации производителей продукции, важную роль играет исторический опыт. Исследование с новых методологической позиции вопросов деятельности производственных кооперативов в послевоенные годы, их роли и места в социально-экономической жизни региона приобретает важное значение и в плане решения поставленных задач. Советское правительство поручило кооперативам расширять кооперативную торговлю наряду с производством товаров народного потребления. В данной статье рассмотрены и проанализированы данные о роли производственных кооперативов, функционировавших в Ферганской области в годы после Второй мировой войны, в экономическом развитии региона, их роли в производстве товаров широкого потребления и их специфике.

Abstract

During the years of independence, it was important to create various forms of ownership and their effective application in the process of implementing reforms in the socio-economic sphere, in providing the population with consumer goods, stabilizing and developing social relations, in connection with which cooperative enterprises are becoming increasingly important. In the changes carried out in this direction, in particular, the solution of such issues as the creation of the institution of a cooperative association of independent and interconnected enterprises, farms, dekhkan farms and owners of household plots into agricultural associations, as well as the development of cooperation between producers, historical experience plays an important role. Research from a new methodological position on the activities of production cooperatives in the postwar years, their role and place in the socio-economic life of the region is also of great importance in terms of solving the tasks set. The Soviet government instructed the cooperatives to expand cooperative trade along with the production of consumer goods. In this article, the role of production cooperatives operating in the economic development of the region since the Second World War in Fergana region, their role in the production of a wide range of consumer goods and their peculiarities were discussed and analyzed.

Kalit so'zlar: Kooperativ harakat, Ikkinchchi jahon urushi, bozor iqtisodiyoti, artel, nogironlar, nogironlar kooperativ uyushmasi, mahalliy xom ashyo, xususiy tadbirkorlik, ishlab chiqarish kooperativi.

Ключевые слова: Кооперативное движение, Вторая мировая война, рыночная экономика, артель, инвалиды, кооперативный Союз инвалидов, местное сырье, частное предпринимательство, производственный кооператив.

Keywords: Cooperative movement, World War II, market economy, artel, disabled people, cooperative Union of the disabled, local raw materials, private enterprise, production cooperative.

TARIX

KIRISH Bugungi globallashuv asrida iqtisodiy integratsiyalashuv mamlakatlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini tarixiy tajriba va ijtimoiy resurslar hisobiga kengaytirishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda dunyo aholisini 12 foizini qamrab olgan iqtisodiyotning uchinchi sektori hisoblangan kooperativ harakatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shuning uchun 2016-yilda YuNESKO «Kooperativlarda umumiy manfaatlarni tashkil etish g'oyasi va amaliyoti»ni Insoniyat nomoddiy madaniy merosining ro'yxatiga kiritdi[12: https://ich.unesco.org/en/unesco/2016/06/13/kooperativlarda_umumiy_manfaatlarni_tashkil_etish_goyasi_va_amaliyoti]. Sovet davrida faoliyat olib borgan kooperativlarning aniq maqsad va vazifalari, mustaqil matbuot organi hamda boshqaruva tizimiga ega bo'lganligi, o'z a'zolarining moddiy ahvolini yaxshilash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish kabi muammolarni hal qilishdagi ahamiyatining o'rganilishi aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya muammolarini hal qilishga yordam berish hamda jamiyatda o'rta qatlamni shakllantirishning ilmiy nazariy asoslarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR XX asrning 70-yillarigacha ishlab chiqarish kooperativlari faoliyati tarixchilar tomonidan alohida obyekt sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, iqtisodchilar tomonidan ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarda hunarmandchilik kooperatsiyasi ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy tuzilishi, ularning iqtisodiy ahvoli va xom-ashyo ta'minoti kabi masalalar yoritilgan. Jumladan, M.A.Sipkinaning tadqiqotida o'rganilayotgan davrda ko'plab iqtisodiy reja ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Huquqshunos va iqtisodchilar I.A. Yevenko, A.I. Kiselev, I.A. Kadnikov, V.A. Sobolevlar tomonidan ushbu davrda e'lon qilingan ishlarda kooperativ korxonani tashkil etish, tuzilishi, huquqiy maqomi, xo'jalik yuritish faoliyati yoritilib, bular asosan, mazkur tizimdagagi ish yuritish hamda kooperativ texnikum va oliv o'quv yurtlari uchun qo'llanma vazifasini bajargan. Mavzu tarixshunosligining tahlili shuni ko'rsatadi, tadqiqotlarda asosiy e'tibor faqat qishloq xo'jaligi, matlubot va ishchi kooperatsiyalari faoliyati hamda sovet hokimiyatining ishlab chiqarish artellari sohasida olib borgan siyosati tahliliga qaratilgani holda, Ikkinchiji jahon urushidan keyingi yillarda ishlab chiqarish artellari va ularning faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirgan hunarmandchilik kooperatsiyasining faoliyati ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida kompleks o'rganilmagan.

NATIJALAR O'lkada sovet hukumati o'rnatilgan dastlabki yillarda kooperativlar faoliyatining demokratik tamoyillari saqlangan bo'lsa-da, Sovet hokimiyati mustahkamlanib borgani sari uning xo'jalik ishlab chiqarishdagi mustaqilligi kamayib, kooperatsiya tizimining davlatga bog'liqlik jihatlari kuchaytirib borildi. Bu jarayon Ikkinchiji jahon urushidan keyin kooperativ korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga davlat tomonidan qat'iy narxning belgilanishi hamda uning Davlat banklari va Davlat ta'minoti tizimiga qaramligining kuchayishida o'z aksini topdi. Kooperativlarning bunday murakkab vaziyatga tushib qolishining asosiy sabablaridan biri kooperativ bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo'lib, uning qonunlari asosida faoliyat olib borishi lozim bo'lsa, ikkinchi tomonidan ular moliyaviy jihatdan qat'iy davlat nazorati ostida faoliyat yuritib, ishlab chiqargan mahsulotlarini o'zi taqsimot qila olmadi. Ammo shunga qaramay kooperativlar faoliyati to'xtatilgunga qadar o'z a'zolarining ijtimoiy muammolarini hal qilib bordi hamda halq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalarida muhim rol o'ynadi.

Manbalarda keltirilishicha, 1946-yilda Farg'ona viloyati bo'yicha: artellarning umumiy soni 43 tani, artellarda faoliyat olib borgan a'zolar – 7 141 nafarni, artel' a'zolari bo'lgan ayollarning soni – 2 271 nafarni, artelga a'zo bo'lmaganlarning soni esa – 399 tani tashkil etgan[9:6].

Artellarning aholi ehtiyojlari uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga tezlik bilan moslashuvi va mahalliy xom ashyodan foydalanishi uning eng muhim jihatlaridan biri hisoblangan. Kooperativlar tomonidan ehtiyojdan kelib chiqib, kundalik turmushda eng zarur bo'lgan mahsulotlar: poyabzal, kiyim-kechak,sovun, ichimlik sodasi, to'qimachilik mahsulotlari, sopol va alyumin idishlar, mebellar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston SSR Ministrler Sovetining 1946-yil 30-martdagi «Internatlardagi Vatan urushi nogironlarini moddiy va madaniy-maishiy turmush sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini bajarish yuzasidan 1946-yilning 15-may sanasidan kechikmay O'zbekiston nogironlar kooperatsiyasi soveti barcha internatlarda nogironlarni «uyda ishlovchilar» sifatida ishlab chiqarishga jalb etish vazifasi yuklatildi. Ushbu qarorni amalga oshirish jarayonida Quvasoy, Marg'ilon shaharlardagi urush nogironlari internatlardan 95 kishini kasbga o'qitishni tashkil etish

vazifasi ham topshirildi. Buning uchun 10 kun muddatda instruktor yoki ustalar bilan ta'minlash hamda viloyat nogironlar kooperativ uyushmasiga internatlardagi nogironlarni o'qitish uchun xomashyo, material va asbob-uskunalar ajratilishi kerak edi[2:1]. Nogironlarni ishlab chiqarishga jalb qilish jarayonida tibbiy ekspertiza xulosasi asosida ular sog'ligiga zarar yetkazmaydigan sohalarga o'qitishga e'tibor qaratildi.

Farg'ona viloyati nogironlar kooperativ uyushmasi raisi Rasulovga O'zbekiston nogironlar kooperatsiyasi soveti Prezidiumi raisi Vankovning yuborgan ko'rsatmasiga asosan, nogironlar kooperatsiyasi uyushma va artellarining asosiy vazifasi, eng avvalo, Ikkinci jahon urushida jang qilgan, armiya saflaridan qaytgan insonlar, ayniqsa, nogironlar, Qizil armiya jangchilarining yetim qolgan oilalari hamda frontorti mehnat nogironlari haqida g'amxo'rlik qilish hisoblangan. Bundan tashqari, kooperatsiya o'z oldiga nogironlar kooperatsiyasi tizimining barcha ishchilari uchun yetarli moddiy-maishiy sharoit yaratish va barcha artellardagi oshxonalarda ikki martalik ovqatlanishni tashkil etish hamda tushlik sifatini yaxshilash kabi vazifalarni ham qo'ydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, binolarning tashqi ko'rinishi va sanitariya holati yaxshi bo'limasa, javobgar shaxslar sud tartibida javobgarlikka ham tortilgan. Shuningdek, tegishli rahbarlar tomonidan har oyda mehnatkashlarni madaniy-maishiy ehtiyojlarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan tashkiliy-ommaviy ishlar haqida ma'lumot berib borilgan[2:3-4].

O'rganilayotgan davrda Farg'ona viloyatidagi ishlab chiqarish kooperativlarining hududning iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos o'rni bo'lib, jumladan, O'zbekiston SSR Ijtimoiy ta'minot ministri o'rinbosari I.Ivanovskiy «Vatan urushi nogironlari va tuberkulyoz bilan og'iganlar uchun artel va sexlarni tashkil etish to'g'risidagi» qarorni bajarish yuzasidan 1946-yil 29-iyulda yuborgan xatida Farg'ona viloyat nogironlar kooperativ uyushmasiga zudlik bilan Qo'qon ijtimoiy ta'minot bo'limiga qarashli sobiq 2-sonli nogironlar uyi binosida tuberkulyoz-nogironlar uchun sex yoki artel' tashkil qilish topshirig'i berilgan edi[10:27]. Shu o'rinda yana bir muhim omilni ko'rsatib o'tish kerak. Bu davrda nogironlarning barcha guruh va kategoriyalarini mehnatga jalb qilish asosiy masalalardan biriga aylangan bo'lib, artelga a'zolikka qabul qilingandan keyin bir yil o'tgach ularning davlat qaramog'idan chiqarilgani bu jarayondagi asosiy omil bo'lgan bo'lishi mumkin.

Farg'ona viloyati nogironlar kooperativ uyushmasining 1947-yil 6-yanvardagi yig'ilishi qaroriga ko'ra, 1946-yilning dekabr oyida artellar rejani 63,2 foizga bajargan, xolos. Artel' raislari mahalliy xom ashyo va davlat ishlab chiqarish chiqindisi qoldiqlariga ishlaydigan sohalarga yetarli darajada e'tibor bermagan. Masalan, «Fergintrud» arteliningsovun va qandolat sexi xom ashyo yo'qligi uchun umuman ishlamagan[5:2].

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1947-yilda Farg'ona viloyati nogironlar kooperatsiyasi tizimida 14 ta artel' faoliyat yuritib, yil yakuni bo'yicha ularning umumiyy foydasi 1 793,9 ming so'mni tashkil etgan edi[3:3].

Sovet hukumati tomonidan artellarga halq iste'mol mollari ishlab chiqarish bilan bir qatorda kooperativ savdosini kengaytirish haqida topshiriq berildi. Jumladan, Marg'ilon shahrida 10 ga yaqin artel bo'lishiga qaramay, ular keng iste'mol mollar ishlab chiqarish va savdo do'konlari ochishga kirishmagan. Faqat «Mehnatobod» arteli bu ishga kirisha boshlagan bo'lsa ham, nisholda va holvadan boshqa narsa ishlab chiqarmadi[11:2].

Bu davrda viloyatdagi artellar sohaga aloqasi bo'Imagan shaxslarni ham ish bilan ta'minlashda yaqindan yordam berib turgan. Jumladan, O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligining 1948 yil may oyidagi xatiga asosan, Farg'ona viloyatidagi Ichki ishlar vazirligiga qarashli Qo'qon mehnat tarbiyaviy koloniyasining 10 nafar tarbiyalanuvchisini artellar ish bilan ta'minlashi kerakligi ko'rsatilgan. Mazkur xatda tarbiyalanuvchilar tikuvcchi, gilam to'quvchi va kalavalovchi kabi kvalifikasiyaga ega ekanligi ko'rsatilib, viloyat hunarmandchilik uyushmasi o'z vakilini yuborishi hamda kerakli soha bo'yicha tarbiyalanuvchilarni tanlab olishi mumkinligi qayd etilgan[1:136].

MUHOKAMA Tahlil etilayotgan yillarda viloyat artellarining faoliyatida bir qator kamchiliklar ham kuzatilgan. Xususan, 1948-yil 27-avgustda Farg'ona viloyati nogironlar kooperatsiyasining V'sezdi materiallarida keltirilishicha, 1946–1948-yillar uchun taftish komissiyasi saylangan bo'lib, ushbu komissiya bir qator ishlarni amalga oshirgan. Shunga ko'ra, 11 ta artelda va sotish-ta'minot bo'limida tekshiruv o'tkazilib, unda ta'minot bo'limi boshlig'i Kusaev va Mironov artellarning solishtirma og'irligini hisobga olmay, xom ashyoni noto'g'ri taqsimplagani tufayli komissiya talabiga ko'ra ishdan olingan. 1946-yilda taftish komissiyasi a'zolari tomonidan

TARIX

12 marta tekshiruv o'tkazilib, 121,8 ming so'mlik kamomad aniqlangan. Shuningdek, «Oktyabrning 21 yilligi» artelining barcha boshqaruvchilari 90,0 ming so'mlik kamomadga yo'l qo'yan bo'lib, artel' mulkini talon-taroj kiluvchilarning 4 nafari halq sudi qaroriga ko'ra, 10 yilga ozodlikdan mahrum qilingan[6:10].

Ma'ruzada artel raislari xususiy tadbirkorlik faoliyatiga yo'l qo'yib berayotganligi, nogironlar kooperativ uyushmasi esa kadrlar masalasiga, ayniqsa, rais va buxgalterlar tanlash hamda joyiga qo'yishga jiddiy e'tibor bermayotganligi alohida ta'kidlangan. Masalan, «O'zbekiston» arteliga yuborilgan Yagudayev 12 ta tikuv stanogini xususiy savdogarga sotib, u bilan foydani teng bo'lib olgan edi[6:13]. Albatta, bu ish bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilib, unga nisbatan qonuniy chora ko'rildi.

Demak, sovet davlati urushdan keyingi yillarda halq xo'jaligini tiklashdek murakkab davrda ham xo'jalik yuritishning erkin iqtisodiy usullarining kichik ko'rinishlariga ham jiddiy qarshilik ko'rsatgan. Oqibatda tizimda kamomad, mulksizlik va egasizlik kabi jarayonlarga yo'l ochib berilgan.

Artellardagi qo'nimsizlikni asosiy sabablaridan yana biri, mehnat sharoitlarining qoniqarli emasligi bilan bog'liq edi. Bundan tashqari, artel a'zolariga yaratilgan imkoniyatlardan, ya'ni berib borilgan mukofot va moddiy yordamlardan artellardagi yollanma ishchilar foydalanish huquqiga ega bo'lgan, oqibatda ishchilarning ketib qolishiga ko'plab kuzatilgan.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 14-apreldagi qaroriga muvofiq, Farg'ona viloyati nogironlar kooperativ uyushmasining «Navoiy» artelida qo'riqlash sexining namunaviy ustavi tasdiqlangan. Unga ko'ra, Farg'ona viloyati, shahar va tumanlarida yashaydigan fuqarolar SSSR konstitusiyasining 126-moddasiga ko'ra, ko'ngilli ravishda nogironlarning kooperativ arteli, ya'ni sosialistik mulkni qo'riqlash sexiga kirishi mumkin bo'lgan[4:83]. (Bu o'rinda 1952 yilga qadar xo'jalik ob'ektlarini qo'riqlash bevosita nogironlar kooperatsiyasi vakolati doirasida bo'lganligini alohida ta'kidlash zarur).

1949-yil 5-oktyabrdagi «Zagotovitel» artelining umumiy yig'ilishida artel nomini, ishlab chiqarish sohasini o'zgartirish va ustavni tasdiqlash masalalari muhokama etilgan. Yig'ilish qaroriga ko'ra, artel' faqat savdo-tayyorlov faoliyati bilan ishlab chiqarish rejasini bajara olmasligi, shuning uchun Farg'ona viloyati nogironlar kooperativ uyushmasi va Farg'ona shahar ijroiya qo'mitasidan artel' faoliyat yo'nalishini savdo-tayyorlovdan ko'p tarmoqli yo'nalishga va nomini esa «Zagotovitel»dan «Navoiy»ga o'zgartirish so'ralgan. Artelga ichimlik sodasi ishlab chiqarish va qadoqlash, uksus tayyorlash, bo'yoq ishlab chiqarish, rezinka kalish tayyorlash, alif hamda moyli bo'yoqlar ishlab chiqarish, kamyoviy tozalash va kiyimlarni ta'mirlash, tuzni maydalash hamda qadoqlash kabi yangi sexlarni ochishga uchun ruxsat berildi[7:60]. Artel «Navoiy» deb nomlanib, yo'nalishi ko'p tarmoqli sohalarga o'zgartirilib, bundan tashqari ishlab chiqarish sexlari va savdo shoxobchalarini ochishga ham ruxsat berildi[7:64].

XX asning 50-yillarga kelib, ishlab chiqarish kooperativlari faoliyatida o'sish bo'lganligini kuzatish mumkin. Bunday natijaga erishishda «sotsialistik musobaqalar» ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shuningdek, tizimda amalga oshirilgan o'zgarishlarga qaramay, ishlab chiqarish kooperativlari o'z moddiy ahvolini ancha yaxshilab oldi.

Shu o'rinda alohida qayd etish kerakki, tadqiq etilayotgan yillarda artellar aholining mahalliy xom ashyodan tayyorlangan iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Jumladan, Farg'ona viloyati nogironlar kooperativ uyushmasiga qarashli «Navoiy» artelining 1951-yil 26-sentyabrdagi umumiy yig'ilishida «Farg'ona shahrida avtomashina, velosiped va motosikllarni ta'mirlaydigan vulkanizasiya hamda rezina poyabzallarni ta'mirlash kabi xizmatlar ko'rsatish uchun 2-Bozor ko'chasi 19-uyda aholiga xizmat ko'rsatish uchun slesar'-mexanik ustaxonasi ochilgan»[8:5].

XULOSA Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etish barobarida aholi hamda urush nogironlarini ish bilan ta'minlash, halq xo'jaligida zarur ehtiyoj mollarini ishlab chiqarishni ko'paytirish masalalariga e'tibor qaratildi. Farg'ona viloyati nogironlar va hunarmandchilik artellari metallni qayta ishlash, silikat-keramika, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda yetakchilik qildi. Shuningdek, qo'riqlash sexlarining faoliyati aynan nogironlarni ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Lekin ishlab chiqarish rejalarining davlat tomonidan belgilanganligi artellar faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatib, markazlashtirilgan holda

taqsimlanadigan fond xomashyolari hisobidan ishlaydigan charm, trikotaj, kimyo va metallurgiya sohalarida rejalarining bajarilmasligiga olib keldi.

XX asning 50-yillaridan boshlab artellar faoliyatida ijobjiy o'zgarishlar kuzatildi, jumladan, Farg'ona viloyat nogironlar kooperativ uyushmasi ishlab chiqarish rejasini ortig'i bilan bajara boshladi. Bundan tashqari mahsulotlarning yangi namunalari jumladan yarim nikel' krovatlar, bolalar krovatlari hamda mebellarning yangi modellarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu o'z navbatida aholi turmush darajasini muayyan darajada oshirishga xizmat qildi. Biroq, artel' boshqaruvi xodimlari tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, kamomad, o'g'irliklarni sodir etilish holatlari rejalar bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa o'z-o'zidan artelchilarni daromadini pasayishiga, ularning ijtimoiy ahvolining og'irlashuviga, kadrlarning qo'nimsizligiga olib keldi.

ADABIYOTLAR:

1. Farg'ona VDA, 35-fond, 1-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 136-varaq
2. Farg'ona VDA, 623-fond, 1-ro'yxat, 18-yig'ma jild, 1-varaq.
3. Farg'ona VDA, 623-fond, 1-ro'yxat, 27-yig'ma jild, 3-varaq.
4. Farg'ona VDA, 623-fond, 1-ro'yxat, 33-yig'ma jild, 83-varaq.
5. Farg'ona VDA, 623-fond, 1-ro'yxat, 34-yig'ma jild, 2-varaq.
6. Farg'ona VDA, 623-fond, 1-ro'yxat, 36-yig'ma jild, 10-varaq.
7. Farg'ona VDA, 625-fond, 1-ro'yxat, 12-yig'ma jild, 60-varaq.
8. Farg'ona VDA, 625-fond, 1-ro'yxat, 20-yig'ma jild, 5-varaq
9. O'zMA, R-2244-fond, 1-ro'yxat, 42-yig'ma jild, 6-varaq.
10. O'zMA, R-2326-fond, 1-ro'yxat, 154-yig'ma jild, 27-varaq
11. Farg'onada kooperativ savdosi hali ham kuchaytirilgan emas // Qizil O'zbekiston. 1947 yil 8 fevral'. №28.
12. Idea and practice of organizing shared interests in cooperatives. <https://ich.unesco.org/en/RL/idea-and-practice-of-organizing-shared-interests-in-cooperatives-01200>

(Taqrizchi: B.Usmanov-tarix fanlari doktori, dotsent)